

ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDAGI SUJET VA UNING UNSURLARI

Pulatov Doniyor Sayfulla o'g'li

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan

davlat chet tillari instituti

stajyor-o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20728643>

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi, buyuk ijodkor Abdulla Qahhorning “Dahshat” xikoyasidagi sujet va uning unsurlari ya'ni ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim kabi elementlar to'g'risida fikr yuritilgan. Xususan bu unsurlarning asar voqelariga kirish bosqichi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, ekspozitsiya, prolog, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog.

Аннотация

В данной статье рассматривается тема и её элементы в рассказе «Дахшат» великого узбекского писателя и творца Абдуллы Каххора, а именно: экспозиция, завязка, развитие событий, кульминация, развязка. В частности, анализируется этап вхождения этих элементов в события произведения.

Ключевые слова: Абдулла Каххор, экспозиция, пролог, завязка, развитие событий, кульминация, развязка, эпилог.

Abstract

This article discusses the subject and its elements in the story "Dahshat" by the great Uzbek writer and creator Abdulla Qahhor, namely, exposition, node, development of events, culmination, resolution. In particular, the stage of entry of these elements into the events of the work is analyzed.

Keywords: Abdulla Qahhor, exposition, prologue, node, development of events, culmination, resolution, epilogue.

Ma'lumki biron bir badiiy asar yaratish jarayonida ijodkor hayotning rang barang elementlaridan, tabiatning jo'shqinligidan, osmonning tiniqligi-yu yerning ijodiy chizgilarigacha e'tibor beradi. Biz bularning barchasini jamlab sujet deb ataymiz. Sujet (fran. Sujet-predmet, mazmun) har bir asarning asosi, ruhi deyish mumkin. Chunki o'quvchi shu syujet orqali asarga kirib boradi, o'z hayollarida gavdalandiradi, asardagi g'oyani o'zicha tahlil qiladi. Adabiy asarni syujetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Lekin har bir asarning va, xususan, lirik she'rning syujeti uziga xosdir. Adabiyotshunos T.Silmanning fikricha, “lirik she'r syujeti — tematik jihatdan ham

va shuningdek o'z tuzilishiga kura ham biz "quyultirilgan lirik holat" deb ataydigan — lirik qahramonning kuchaytirilgan, keskinlashtirilgan holatini ifodalaydi"¹

Adabiy asar sujeti har doim konflikt bilan yashaydi, konflikt orqali asarning tarkibiy elementlari bosqichma bosqich yaratib boriladi. Bu jarayon davomida kitobxon turli xis-tuyg'ularni, ruhiy kechinmalarni xis qiladi.

Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi sujeti jihatdan hikoyanavislikda muhim ahamiyat kasb etgan. Undagi ekspozitsiya (lot. tushuntirish): "Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzod qo'ymijoz g'uj bo'lib va nimanidir kutib jimgina o'tirishni xohlab qoladi." –degan hayotiy tajribaga asoslangan fikrlar bilan boshlanadi. Bunda ko'rib turganingizdek, muallif dastlab tabiat hodisasiga ya'ni shamolga urg'u beradi. Bilamizki shamol g'azab, asabiylik, vayronkorlik belgisidir. Shu sababli ham Abdulla Qahhor o'z hikoyasini "Dahshat" deb nomlaydi.

Sujening yana 1 elementi tugun bo'lib, u asosiy voqea boshlanishiga sabab qilib qo'yilgan vaziyat yoki jarayon hisoblanadi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida Akbaralining Zebiga sovchi qo'yishi, Miryoqubning Maryamga oshiq bo'lishi kabilardir.² "Dahshat" hikoyasida ham tugun Olimbek dodxoning katta xotini Nodirmohibeginning qabriston haqidagi hikoyasidan so'ng, ganjiravonlik kenja kelin Unsinoyning qabristonga borib qumg'on qaynatib choy damlab kelsa, dodxo uning javobini berish sharti jarayoni juda ham ta'sirli tasvirlangan. Undagi sujet koloriti, o'sha davr muhiti moqea rivojiga katta hissa qo'shgan. Asardagi tugun shunday 1 o'ziga hos vaziyatda berilganki, kitobxon bu tugunga yetib kelganda o'zini o'qishdan to'xtata olmaydi, jarayonda xuddi o'zi bevosita qatnashayotgandek bo'ladi va har satrni, jumlani o'qiganda o'ziga "keyinchi, keyin nima bo'larkin" degan savollarni hayolan beradi. Albatta, bu jarayon ham o'qib, ham sintezlash fonida ro'y beradi. Asarda kulminatsion nuqta sifatida dodxoning "Shunaqami?.. Xo'p, mayli, aytganing bo'la qolsin, — dedi va bir oz o'ylab turib g'ijinganini yashirolmay ilova qildi: — Lekin go'ristonga pichoq emas, qumg'on olib borasan. Onhazratim sag'anasi oldida qumg'on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, maylimi?" degan gaplarini olish mumkin. Asarning

¹ Т.Сильман. Заметки о лирике, Л., 1977, 6-бет.

² D.Quronov Adabiyotshunoslikka kirish, b-108



kulminatsion nuqtasiga yetib kelishiga yordam bergan voqealarni ketma ket esga olsak quyidagi formula xosil bo'ladi: Shamol+Olimbek dodxoning har doimgidan erta kelishi+ barcha xotinlarining shoshib qolishi+bo'yra(o'sha davrda kafanlikka ishlatilgan mato turi)ning derazaga urilishi bilan dodxoning hayoliga yana qabriston kelishi+Nodirmohibegimning hikoyasi+ Unsinoyning bu hikoya qahramoni haqida sovuqqina fikr yuritishi+dodxoning bu gapga g'ashi kelishi=Unsinoyning "ozod " bo'lish imkoniyati. Asardagi bu kulminatsion nuqta konfliktning yuqori cho'qqiga ko'tarilgani va ijobiy,salbiy obrazlarnig taqdiri hal bo'lish sharoitida yuzaga chiqdi.

Keyingi sujet elementi- yechimga kelsak, u qaysidir ma'noda asar yuzasidan yoki qaysidir 1 bo'limning muammoli, konfliktga ega vaziyatiga xulosa qiladi, voqea rivojini yakunlab beradi deyish mumkin. "dahshat"dagi yechim o'z nomi bilan dahshatli yakun topadi. Unda Unsinoy ne mashaqqatlar bilan qabristondan choy damlab qaytadi-yu xushidan ketib yiqiladi. Chunki u qabristonga yolg'iz bordi, har go'r, har go'rdan olov uchun o'tin yig'di, qo'rqdi lekin qo'rquvni "o'likning joni yo'q" degan iboralar bilan quvdi. Uning bu jasorati, ozod bo'lish istagi oxir oqibat- "Biroq Unsin peshingacha yetmadi — uzildi." gapi bilan o'z nixoyasiga yetgani juda ayanchli.

Shom qorong'isida uning jasadini qizil ko'rpaga o'rab aravaga solishdi. Shamol hamon guvillar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g'uvillar edi." – degan jumlar bilan ayanchli yechim topadi. Asardagi epilog (yun. so'nggi so'z) ya'ni qahramonning keying hayotini so'zlab beruvchi xotima Unsinning vafoti bilan yakun topadi. Bu orqali yozuvchi kitobxonni chuqur o'yga, qayg'uga botiradi va uzoq vaqt asar sujetini voqealar rivojini esidan chiqara olaydi. Mana shu ruhiy holatni yarata olgan ijodkor o'quvchi qalbidan chuqur joy oladi va haqiqiy ijodkor sifatida adabiyot tarixiga kiradi.

Umuman olganda, asardagi sujet va uning elementlari orqali o'sha davrning ayollariga bo'lgan munosabat, ayol va erkaklarning hayotdagi o'rni troplar,badiiy obrazlar, ijodiy rang baranglik orqali namoyish etiladi. Tugun, voqealar rivoji,kulminatsion nuqta kabi sujet unsurlari esa o'sha davr ijtimoiy hayotini badiiy tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor, A. (1983). Asarlar. 6-jild: Hikoyalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- 2.Т.Силъман. Заметки о лирике, Л., 1977, 6-bet.
- 3.D.Quronov Adabiyotshunoslikka kirish, Toshkent 2004, b-108
- 4.<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-dahshat-hikoya>